



*Odinaxon ISMANOVA,  
Namangan davlat universiteti dotsenti  
E-mail:ismanova.79@inbox.ru*

*SHDPI professori P.Jalolova taqrizi asosida*

## TALABALARNI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FIZIK EKSPERIMENT VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING O'RNI

Annotatsiya

Bugungi kunda ta'lrim sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qaralayotgan ta'lrim mazmuni va uni berish usullarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Oliy ta'lrim tizimida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan mutaxassislarini xalkaro standartlar asosida tayyorlashning zamonaviy usullardan biri loyihaviy faoliyat usuli hisoblanadi. Ushbu ishda laboratoriya ishlari bajarish va fizik eksperimentlari o'tkazish orqali talabalarни kognitiv faoliyati aktivlashtirish usullari yoritilgan. Buning uchun esa namuna sifatida talabalarga laboratoriya ishi ko'rinishida bir nechta fizik topshiriqlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Laboratoriya ishi, mashg'ulot, loyihaviy faoliyat, fizik eksperiment, talaba, kreativlik, aerodinamik qarshirik, virtual laboratoriya.

### РОЛЬ ФИЗИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ И ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Совершенствование содержания образования и методов его предоставления, которые рассматриваются как основные факторы, влияющие на качество образования, является актуальной проблемой. Одним из современных методов подготовки высококвалифицированных, творческих и системно мыслящих специалистов в системе высшего образования на основе международных стандартов является метод проектной деятельности. В данной работе выделены методы активизации познавательной деятельности студентов путем выполнения лабораторных работ и проведения физических экспериментов. Для этого, например, учащимся даются несколько физических заданий в форме лабораторных работ.

**Ключевые слова:** Лабораторная работа, обучение, проектная деятельность, физический эксперимент, студент, творчество, аэродинамическое сопротивление, виртуальная лаборатория.

### THE ROLE OF PHYSICAL EXPERIMENTS AND LABORATORY TRAINING IN PREPARING STUDENTS FOR PROJECT ACTIVITIES

Annotation

Improving the content of education and the methods of providing it, which are considered as the main factors affecting the quality of education, is an urgent problem. One of the modern methods of training highly qualified, creative and systemically thinking specialists in the higher education system based on international standards is the method of project activity. In this work, methods of activating the cognitive activity of students by performing laboratory work and conducting physical experiments are highlighted. To do this, for example, students are given several physical tasks in the form of laboratory work.

**Keywords:** Laboratory work, training, project activity, physical experiment, student, creativity, aerodynamic drag, virtual laboratory.

**Kirish.** So'nggi yillarda Respublikamizda ta'lrim sistemasiada katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlarni huquqiy asosi va drayveri Respublikamiz Prezidentining 2019 yil 8 oktabrda qabul kilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lrim sistemasini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi" to'g'risidagi farmoni hisoblanadi. Ushbu farmonni uchinchi bobida oliy ta'lrim sistemasini rivojlantirishni strategik maqsadlari va ustivor yo'nashlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

-Bozor talabidan kelib chiqib mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun inson kapitalini rivojlantirishi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'tarish.

-Yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan mutaxassislarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash.

-O'z intilekt qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ma'nnaviy rivojlanchagan shaxs sifatida shakllantirish uchun mustaqil ravishda qaror qabul qilishga qodir shaxsni tarbiyalash.

Ushbu farmonni amalga oshirish uchun avval sifatli ta'lrim berish va olish uchun e'tibor qaratish kerak bo'lgan asosiy omillar sifatida ta'lrim mazmuni, ta'lrim shakli va usuli, moddiy texnik baza va professor-o'qituvchilarni qarash mumkin.

Ta'lrim sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qaralayotgan ta'lrim mazmuni va uni berish usullarini takomillashtirish bo'yicha juda ko'p ilmiy tadqiqotlar va

o'rganishlar olib borilmoqda. Ta'lrim sifatini oshirish uchun xorijiy davlatlarda keng qo'llanilayotgan zamonaviy usullardan biri "loyihaviy faoliyat" usuli hisoblanadi [1,2].

Talabaning kasbiy malakasii nafaqat o'quv faoliyatini tashkil etishni, balki ularning o'quv dasturlarini loyihalash, o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish, zamonaviy ta'lrim texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari oliy ta'limga fanlar kesimida talabalarни loyihaviy faoliyatlarini samarali tashkil etishlari zamon talabi hisoblanib kadrlar sifatiga ijobji tomonlama sezilarli ta'sir qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Loyiha faoliyatining paydo bo'lishi J. Devi, U. X. Killpatrick, Y. A. Komenskiy, G. P. Shchedrovitskiy va boshqalar, loyihalash faoliyatini o'qitish usulining texnologik tomonini A. E. Dmitriev, L. I. Gure, A. T. Molibog, V. S. Lazarev, M. M. Potashnik, yu. N. Ryumina, I. S. Sergeyev, V. A. Yasvin va boshqalarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan. Loyiha faoliyati zamonaviy ta'lrim texnologiyasi sifatida E. V. Boldirev, I. A. Kolesnikova, V. M. Monakov, V. A. Bolotov, V. V. Serikov va boshqalarning asarlarida taqdirm etilgan.

E. S. Polat, K. N. Polivanova, D. Jak, D. Rid kabi olimlarni asarlarida esa loyihalash faoliyatini o'qitishda qo'llash samaradorligi yoritib berilgan. Biroq, oliy ta'lrim talabalar ni o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan faol foydalanshlariga

qaramay, mahalliy mutaxasislar tomonidan talabalarning loyiha faoliyatini tashkil etish muammosi kam o'r ganilgan.

Fizik bakalavrlar tayyorlash ta'lim tizimiga ham "loyihaviy faoliyat" yoki "loyiha"lar usulini qo'llash samarali ekanligi bizning avvalgi ilmiy tadqiqotlarimizda asoslab berilgan [3,4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasalarida va keyinchalik ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanib biror-bir fizik mavzuga oid loyiha amalgaga oshirishlari davrida fizik jarayonni o'rganish uchun turli qurilmalar yordamida o'lchov va kuzatish ishlarini olib borishlariga to'g'ri keladi. Bunday faoliyat samarali bo'lishi uchun talabalarda o'rganilayotgan jarayondagi qanday fizik parametrlar bevosita o'lchash imkoniyati mavjudligini aniqlash va o'lchov qurilmalari bilan ishlash ko'nikmasi shakllangan bo'lishi kerak. Fizikadan laboratoriya ishlari yuqorida ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy mashg'ulot turi hisoblanadi, chunki laboratoriya ishlari tushunchasiga deyarli barcha o'quv standartlarida quyidagicha ta'rif berilgan [5]:

Laboratoriya ishi: mahsus qurilmalarni qo'llash (laboratoriya, texnologik, o'lchov asboblari, stend va kompyuter majmuasi) yordamida o'tkaziladigan amaliy o'quv mashg'uloti bo'lib, uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

laboratoriya, texnologik va o'lchov qurilmalarni foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

obyektni yoki jarayonni xarakteristikasini o'rganish va tashkil etish uchun tajriba o'tkazish, kuzatuv olib borish yoki modellaştirish kabi ilmiy-eksperimental tadqiqot tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lishi.

Laboratoriya ishidan tashqari talabalarini fizik hodisa va jarayonlarni o'rganishda fizik eksperimentlar katta ahamiyatga ega, chunki juda ko'p fizik nazariya, qonun-qoidalarni o'quv fizik eksperimentlar yordamida asoslanadi va qo'llanish sohasi bo'yicha esa barcha fizik eksperimentlar natijasini tushuntirib beradi.

Laboratoriya ishlari bajarish va fizik eksperimentlar o'tkazish orqali talabalarini kognitiv faoliyati aktivlashadi, chunki real tajriba o'tkazish orqali olingen natijalarini talaba tahlil qiladi, taqqoslash orqali to'g'riligiga ishchonch hosil qilishi kerak. Bunday tashqari eksperiment natijalari nazariy tasavvur va farazlarni tekshirish uchun asosiy vosita va yangi dalillar manbai hisoblanadi [6].

**Tahlil va natijalar.** Talabalarini loyihami faoliyatga tayyorlashda laboratoriya ishlari va fizik eksperimentlarni yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari hozirgi zamонави та'lim kontsepsiysiga to'la javob bermaydi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

Laboratoriya ishlari mavzu bayoni, ishchi formula, bajariladigan ishlar ketma-ketligi tayyor berilgan bo'lib, talabalar faqat kuzatish, o'lchash va hisoblash faoliyati bilan shug'ullanishadi. Bunday faoliyat tufayli talabalarda asosan konvergent fikrlesh rivojlanadi, ammo loyihami faoliyat uchun asosiy bo'lgan shaxsning xususiyati, ijodiy yoki kreativ fikrlesh kamen rivojlanadi.

Talabalarga tavsija qilingan laboratoriya ishlarida yoki fizik eksperimentlarda asosan bitta fizik kattalik, ya'ni erkin tushish tezlanishi, o'tkazgich solishtirma qarshiligi yoki suyuqlikni qovushqonlik ko'effitsienti kabilarni aniqlash talab qilinadi. Laboratoriya ishlari bajarishga bunday yondashuv talabalarda asosan metodologik bilimlарни rivojlanadir, ammo epistemik bilimlarni rivojlanitmайди.

Epistemik bilimlar rivojlanishi uchun talaba jarayonni xarakterlaydigan fizik kattalikni bирорта boshoja parametrga bog'liqlik jadvalini yoki grafigini olib undan o'ziga yangi bilimlarni yaratishi zarur [7].

Fizik topshiriq tuzish va bajarish imkoniyati ko'proq "Umumiy fizika" kursini mexanika, molekulyar fizika, elektr va magnetizm bo'limlariда mavjud. Shuning uchun ushbu bo'limlarga tegishli bir nechtadan fizik topshiriqlar tuzib talabalarga mustaqil ish sifatida berish lozim.

Talaba fizik topshiriqlarni bajarish uchun avval topshiriqqa mos mavzu bo'yicha nazariy malumotlar bilan tanishadi va muammoni aniqlaydi, so'ngra ushbu muammo asosida fizik masala tuzadi. Ushbu masalani analitik yechimi uchun olingen ifoda ishchi formula bo'lib hisoblanadi va o'lchash mumkin bo'lgan kattaliklarni aniqlab u asosida laboratoriya qurilmasini yig'adi. Qurilma yig'ish o'ziga xos original yechimlarni topishni talab qiladi, bu esa talabalarda yuqorida ta'kidlaganimizdek ijodiylik va kreativlikni rivojlanadir. Olingen natijani to'g'ri ekanligiga ishchonch hosil kilish uchun jadval yoki internet ma'lumotlari bilan taqqoslash uchun izlanadi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi [8].

Shu nuqtai nazaridan oliy ta'lim muassasalarida fizik bakalavrlar bajaradigan laboratoriya ishlarida ham yuqorida ta'kidlaganimizdek deyarli bitta fizik kattalikni topish usuli o'rganiladi, shuning uchun talabalar fizik kattaliklarni o'zarbo'liqlik grafigi va jadvallar yordamida o'zi mustaqil ravishda o'zi uchun yangi bilimlar yaratmaydi [9]. Shuni hisobga olib talabalarga shunday fizik topshiriq berish kerakki, ushbu topshiriqni bajarish faoliyatida qandaydir grafik yoki jadval olishi shart bo'lsin. Namuna sifatida molekulyar fizika va elektromagnetizm bo'limiga oid quyidagi fizik topshiriqlarni keltiramiz:

Topshiriq 1. O'simlik yog'ini yopishqoqlik ko'effitsientini haroratga bog'liqligini o'rganing.

Topshiriq 2. Metallarni magnit singdiruvchanligini magnit maydon induksiyasiga bog'liqligini o'rganing.

Ushbu fizik topshiriqni bajarishda ham talabalar o'ziga xos sodda usullardan yoki o'quv adabiyotlari yoki fizik praktikumlarda keltirilgan laboratoriya ishlari bayonidan foydalanib yopishqoqlik ko'effitsientini yoki magnit singdiruvchanlikni aniqlashlari mumkin, ammo harorat va magnit maydon induksiyasini o'zgartirib borish uchun esa o'ziga xos yechim topishlari kerak bo'ladi [10]. Kattaliklarni turli qiyymatlaridan foydalanib olingen chiziqni ekstrapolyatsiyalash orqali kritik qiymatini topish va bu nuqtada qanday jarayon sodir bo'lishi haqida ma'lumotga ega bo'lish talabalar o'zlarini uchun yaratgan yangi bilimlar yaratish ko'nikmasini rivojlanadir.

**Xulosa va takliflar.** Bundan tashqari talaba virtual laboratoriyanı yoki fizik jarayonni kompyuter modelini o'zi boshqaradi, turli parametrlarni tanlaydi va kam vaqt sarflab turli parametrlarni o'zarbo'liqlik haqida yetarli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Virtual laboratoriya va fizik hodisalarini ta'limda qo'llanishini asosiy yutuqlaridan biri talaba ushbu ta'limni mustaqil ravishda olish imkoniyati yuqori bo'ladi. Avvalgi bo'limdagi talabalarini loyihami faoliyatga tayyorlash IT-tehnologiyalaridan foydalanan katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edik, shuning uchun ta'lim ushbu jarayon talabalarini loyihami faoliyatga tayyorlashdagi ba'zi bo'shilqlarni to'ldirib tassavurni boyitadi.

Talabalar fizik topshiriq yoki virtual laboratoriya bajarganlaridan so'ng ularga hisobot yozishni topshiriq sifatida berishi kerak. Bunda quyidagi ko'zda utilgan maksadlar amalga oshadi:

Fizik parametrlar o'zarbo'liqlik yoki kompyuter modellarni kuzatuvlar asosida ilmiy xulosalar chiqarish, o'zi uchun yangi bilimlar yaratish va uni yozma bayon qilishni o'rganish.

Talabalarini kichik loyihami faoliyat olib borishi ko'nikmalarini shakllantirish.

Talabalarini matn tuzish ko'nikmalarini rivojlanadir. Oliy o'quv yurtida fizika ta'limi jarayoniga loyihami usulni qo'llash va talabalarini loyihami faoliyatga tayyorlash metodikasidan ko'rdiki ushbu ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun ta'limni tubdan isloh qilish shart bo'lmay balki hozirgi ta'limga ijodiy yondashib yuqorida bildirilgan takliflar asosida mutaxassislik kafedralar amalii mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish zarur.

## ADABIYOTLAR

1. Киппартик, В. Метод проектов. Применение целевой установки в педагогическом процессе / В. Киппартик. - Л.: Брокгауз-Ефрон, 1925. - 43 с.
2. Кудинова О.С., Скульмовская Л.Г. Проектная деятельность в вузе как основа инноваций // Современные проблемы науки и образования. – 2018. – № 4.; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=27928>
3. *Bobaxo jaev U., Ismanova O., Yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassislarini kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda loyihalash faoliyatini ahamiyati.* // “Yarim o’tkazgichli opto- va nanoelektronika, muqobil energiya manbalari hamda ularning istiqbollari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaly konferentsiya. – Andijon, 2023. 12–13 oktabr. B. 362–365.
4. *Ismanova O.* The importance of designing activities in the formation of creativity characteristics of physics students. European Journal of Education and Applied Psychology. scientific Journal 2023. №4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-72-76>
5. Виленский М.Я., Образцов П.И., Уман А.И. Технологии профессионально-ориентированного обучения в высшей школе. Педагогическое общество России, М., 2004
6. Аршинов В.И. Эксперимент как форма научной практики. Материалистическая диалектика как обуяя теория развития. М., 1982 г. С 1-3.
7. А.С. Черняева. “Структура научного знания”. Учебное пособие для аспирантов и соискателей. – Красноярск: СибГТУ, 2013 г.
8. А.Г. Шеина. Физический практикум. Часть 2: Учебное пособие /Под ред. А.Г. Шеина; ВолгГТУ. Волгоград, 2003. - 193 с.
9. Рахмонов Р.К., Методические разработки к лабораторным работам по физике. Душанбе. ЭР-гриф. 2019
10. Калашников С.Г., Электричество. Учебная пособия для физической специальностей высших учебных заведений. Москва. Физматлит. 2003 г.